

ESG ASOSIDA BARQAROR BOSHQARUV VA KORPORATIV MAS'ULIYAT: O'ZBEKISTON AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING XALQARO HAMKORLIK IMKONIYATLARI

Urinov Bobur Nasilloevich

Innovatsion menejment kafedrası mudiri

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

b.urinov@tsue.uz

Annotasiya: Ushbu maqolada O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) tamoyillariga asoslangan barqaror boshqaruv tizimini shakllantirishning hozirgi holati, muammolari va xalqaro hamkorlik asosidagi istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotda 2020–2024 yillarga oid yillik hisobotlar, xalqaro ESG standartlari hamda Yevropa Ittifoqi va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikdagi loyihalar tahlil qilindi. Muallif ESG indikatorlari asosida korporativ mas'uliyat va barqaror boshqaruvni kuchaytirish uchun maxsus monitoring agentligi tashkil etish, davlat-xususiy sheriklik asosida ta'lim markazlari ochish va ESG hisobotlarini qonunchilik orqali tartibga solish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ESG, korporativ boshqaruv, SDG (barqaror rivojlanish maqsadlari), CSR (korporativ ijtimoiy mas'uliyat), yashil obligatsiyalar, strategik boshqaruv.

So'nggi yillarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG – Environmental, Social, and Governance) mezonlari global korporativ boshqaruv amaliyotlarining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Ular faqatgina kompaniyalarning ichki boshqaruv samaradorligini oshirish bilangina cheklanmay, balki sarmoyadorlar, moliyaviy institutlar, xalqaro reyting agentliklari va tartibga soluvchi organlar uchun ham asosiy baholash mezonini bo'lib xizmat qilmoqda. ESG indikatorlari hozirgi kunda kompaniya qiymatini, bozordagi obro'sini va barqaror rivojlanish salohiyatini belgilovchi eng muhim omillardan biri sifatida tan olinmoqda.

Ayniqsa, iqlim o'zgarishlari, resurslarning cheklanganligi, inson huquqlari va shaffoflik kabi dolzarb global chaqiriqlar fonida, ESG yondashuvi xalqaro maydonda faoliyat yurituvchi kompaniyalar uchun raqobatbardoshlikning yangi ko'rinishiga aylanmoqda. Ushbu tamoyillar orqali kompaniyalar o'z manfaatdor tomonlari – aksiyadorlar, xodimlar, mijozlar, jamiyat va davlat bilan ishonchli va uzoq muddatli munosabatlar o'rnatishga intilmoqda.

O'zbekiston sharoitida ham ESG mezonlariga asoslangan korporativ boshqaruv masalalari so'nggi yillarda davlat siyosati va islohotlar doirasida alohida e'tibor

qaratilayotgan yo'nalishlardan biri bo'lib bormoqda. Jumladan, Prezidentning "Yashil makon", "Yashil energiya" va "O'zbekistonda barqaror rivojlanish" kabi tashabbuslari orqali ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, 2023–2026 yillarga mo'ljallangan Davlat korxonalarini isloh qilish strategiyasi ham korporativ boshqaruv tizimida ESG standartlarini joriy etishni ko'zda tutadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari (AJ) esa bu jarayonlarning markazida turibdi. Ular davlat va xususiy sektor integratsiyasi nuqtai nazaridan muhim vosita bo'lib, ko'plab xalqaro moliyaviy institutlar bilan aloqada bo'lgan, fond bozori orqali kapital jalb qiluvchi subyektlardir. Shu sababli ESG indikatorlari asosida ularning korporativ mas'uliyatini kuchaytirish nafaqat tashqi sarmoya jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki ularning barqaror rivojlanish va xalqaro standartlarga integratsiyalashish darajasini oshiradi.

Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil va kontent-tahlil usullari orqali O'zbekistonda faoliyat yurituvchi aksiyadorlik jamiyatlarining ESG mezonlariga moslashuv darajasi o'rganildi. Buning uchun 2020–2024 yillarda qabul qilingan strategik hujjatlar, xalqaro ESG reyting agentliklari tahlillari va "Toshkent RFB" da ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar yillik hisobotlari tahlil qilindi. Shuningdek, xalqaro tajribadan – Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Janubiy Koreya va Singapurdagi ESG asosli boshqaruv modelalari o'rganildi.

O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarining (AJ) ESG mezonlariga muvofiqligi bo'yicha o'tkazilgan kontent-tahlil natijalari ularning bu boradagi faoliyatlari hali boshlang'ich bosqichda ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, tahlil qilingan 20 ta yirik AJning faqat 5 tasida ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan to'liq yillik hisobot mavjud bo'lib, bu umumiy ko'rsatkichning atigi 25 foizini tashkil etdi.

Shuningdek, kompaniya kuzatuv kengashlarida mustaqil direktorlar ulushi o'rtacha 12–15 foiz atrofida bo'lib, xalqaro tajribada qabul qilingan 30 foizlik mezonga nisbatan ancha past darajada. Bunday holat korporativ qarorlar qabul qilishda xolislik va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha samaradorlikni cheklaydi.

Gender balansi masalasida ham sustlik mavjud: kompaniya boshqaruv kengashlarida ayollar ulushi 10 foizdan oshmaydi, bu esa BMTning 5-sonli Barqaror rivojlanish maqsadi (gender tengligi)ga zid holat hisoblanadi. Ekologik indikatorlarning ochiqqligi esa 22 foiz darajasida bo'lib, faqat bir necha kompaniya atrof-muhitga ta'siri, energiya sarfi va chiqindilar haqida alohida hisobot taqdim etadi.

Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik aloqalari mavjud bo'lsa-da, ularning ESG yondashuvlarini to'laqonli joriy etishdagi hissasi hali cheklangan. Misol uchun, Yevropa Ittifoqi, Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB), va UNDP bilan bog'liq loyihalarda ishtirok etilgan, biroq bu loyihalar odatda loyiha darajasida qolib, tizimli korporativ o'zgarishlarga olib kelmayapti.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarining ESG indikatorlari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlari xalqaro standartlar bilan taqqoslangan:

Ko'rsatkich	O'zbekiston AJ (o'rtacha)	Xalqaro standart (ESG)
Mustaqil direktorlar ulushi	12–15%	$\geq 30\%$
CSR bo'yicha yillik hisobotlar mavjudligi	25%	$\geq 70\%$
Gender balansi (Kengashdagi ayollar ulushi)	10%	$\geq 40\%$
Atrof-muhit indikatorlari ochiqqligi	22%	$\geq 60\%$

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Mustaqil direktorlar ulushi xalqaro me'yordan deyarli 2 baravar past, CSR hisobotlari ko'lami atigi 25% bo'lib, bu kompaniyalarning ijtimoiy mas'uliyat yondashuvini sust bajarayotganini ko'rsatadi, Gender balansi muammosi aniq ko'rinmoqda: 10% ga teng, bu esa rahbarlik darajasida ayollar ishtirokini oshirish zarurligini bildiradi, Atrof-muhit indikatorlari ochiqqligi ham yetarli emas, bu ESG bo'yicha shaffoflikni ta'minlashda qiyinchiliklar borligini anglatadi.

Yuqoridagi natijalar O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida ESG yondashuvining hali shakllanish bosqichida ekanligini yaqqol ko'rsatmoqda. Hisobot berishdagi kamchiliklar, mustaqil direktorlarning yetarli bo'lmagan ulushi, gender tengligi va ekologik ochiqlikdagi sustkashliklar ESG tamoyillari kompaniyalar faoliyatida to'laonli integratsiyalashmaganligini bildiradi. Bu esa, o'z navbatida, investorlarda ishonchni shakllantirish va xalqaro fond bozorlarida kapital jalb qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi.

Biroq ijobiy tomoni shundaki, O'zbekistonda ESG bo'yicha huquqiy va institutsional asoslar asta-sekin shakllanmoqda. Jumladan, Davlat korxonalarini transformatsiya qilish strategiyasi, "Yashil obligatsiyalar" bozorini rivojlantirish tashabbuslari, va "O'zbekiston – 2030" strategik rivojlanish dasturi ESG yondashuvining milliy darajada muhimligini tasdiqlaydi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ESG indikatorlarining korporativ boshqaruv kodeksiga majburiy element sifatida kiritilishi kompaniyalarning barqarorlik, shaffoflik va ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytiradi. Masalan, Yevropa Ittifoqida ESG hisobotlari 2024 yildan boshlab barcha yirik kompaniyalar uchun majburiy bo'ladi (CSRD – Corporate Sustainability Reporting Directive). Xuddi shunday, Janubiy Koreya kompaniyalari 2025 yilgacha ESG hisobotlarini to'liq joriy etishi shart. O'zbekiston AJlari uchun bu kabi tajribalardan o'rnak olib, bosqichma-bosqich ESG amaliyotlarini joriy etish strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar – Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC), BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) bilan

hamkorlikni kuchaytirish orqali quyidagi yo'nalishlarda ESG salohiyati mustahkamlanishi mumkin:

- ESG bo'yicha hisobot standartlari, atrof-muhit baholash metodologiyalari, va ta'lim dasturlari ishlab chiqilishi.
- Yashil obligatsiyalar, barqaror kredit liniyalari va ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalar.
- Davlat ishtirokidagi AJlarda ESG bo'yicha ichki siyosatlar, audit komissiyalari va tashqi baholovchilar tizimini yo'lga qo'yish.

Shu tarzda, ESG indikatorlari asosida barqaror boshqaruvni shakllantirish O'zbekiston AJlarining xalqaro investitsiya maydonidagi pozitsiyasini mustahkamlaydi, sarmoyadorlar bilan shaffof va uzoq muddatli aloqalarni yo'lga qo'yadi hamda SDG (Barqaror rivojlanish maqsadlari)ga erishishdagi milliy sa'y-harakatlarga xizmat qiladi.

O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida ESG (Ekologik, Ijtimoiy va Boshqaruv) yondashuvining joriy holati shuni ko'rsatadiki, bu tizim hali rivojlanishning boshlang'ich bosqichida. Tahlillar natijasiga ko'ra, ESG indikatorlari bo'yicha hisobot berish darajasi past, mustaqil direktorlar va ayollar ulushi yetarli emas, hamda ekologik shaffoflikning pastligi kompaniyalarning barqaror rivojlanish strategiyalarini cheklamoqda. Biroq mavjud tashabbuslar – davlat strategiyalari, xalqaro institutlar bilan hamkorlik va normativ-huquqiy bazaning shakllanishi – kelgusida bu yo'nalishni samarali rivojlantirish uchun zarur asosni yaratmoqda.

Shu munosabat bilan, quyidagi strategik takliflar ilgari suriladi:

- Yillik ESG hisobotlarini baholovchi va kompaniyalarni reytinglovchi mustaqil ESG Monitoring Agentligini tashkil etish lozim. Bu agentlik xalqaro metodologiyalar asosida ishlaydi va ochiqlikni ta'minlaydi.
- “Yashil obligatsiyalar” va “barqaror kreditlar”ni jalb etish uchun xalqaro moliyaviy institutlar (IFC, EBRD, ADB) bilan texnik va moliyaviy sheriklikni kuchaytirish zarur. Bu orqali AJlar xalqaro kapital bozorlariga ESG asosidagi chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.
- ESG bo'yicha ta'lim va akkreditatsiya markazlari tashkil etilishi kerak. Ular menejerlar, direktorlar kengashi a'zolari va hisobot tayyorlovchilarni o'qitadi va sertifikatlaydi. Bu markazlar BMT va Yevropa ittifoqi grantlari asosida faoliyat yuritishi mumkin.
- Kompaniyalar uchun ESG indikatorlari asosida hisobot berishni qonuniy majburiyat sifatida belgilash zarur. Bu moliyaviy hisobotlar kabi nazorat qilinadigan holatga aylanishi kerak.

– O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan, masalan “Strategik ochiqlik indeksi”, “Korporativ mas’uliyat indeksi” kabi indikatorlar ishlab chiqilishi ESGga lokal yondashuvni kuchaytiradi.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshiradi, xalqaro reytinglar va indekslardagi pozitsiyasini mustahkamlaydi, eng asosiysi – barqaror iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy javobgarlikka asoslangan biznes muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, O‘zbekiston global ESG me’zonlariga moslashgan holda SDG – Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiqlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон – стратегияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2021.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2023–2026 йилларда давлат корхоналарини трансформация қилиш стратегияси тўғрисида”ги Фармони. – Тошкент, 2023.
3. EBRD. Transition Report: Business Environment and ESG. – London, 2023.
4. ESG va moliyaviy barqarorlik: O‘zbekiston moliya bozorlari kontekstida. // *Iqtisodiyot va ta’lim* – 2024. – №1.
5. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). ESG Integration in Transition Economies. – London: EBRD, 2023.
6. European Commission. Corporate Sustainability Reporting Directive (CSRD). – Brussels: EC, 2023.
7. IFC. ESG Integration in Emerging Markets. – Washington: IFC, 2023.
8. IFC. Performance Standards on Environmental and Social Sustainability. – Washington: IFC, 2022.
9. Ionescu, L. ESG Factors and Corporate Sustainability. // *Journal of Risk and Financial Management*. – 2022. – T. 15. – №2. – B. 72.
10. OECD. Corporate Governance and Green Finance. – Paris, 2022.
11. UNDP Uzbekistan. ESG-based Public-Private Partnership Toolkit. – Tashkent, 2023.
12. UNDP Uzbekistan. National ESG Strategy Framework. – Tashkent: UNDP, 2023.
13. UNDP Uzbekistan. *Sustainability Reporting in Uzbek Corporations*. – Tashkent, 2023.